

## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Muminova Nazokat Jasur qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodga yetkazish, global muammolarga yechim topish to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologiya, qayta ishlash, ko'kalamzorlashtirish, havoni namlantirish, chiqindilar, suv.*

Hozirgi kunda barcha davlatlar har xil zavod va fabrikalar hisobiga yildan yilga rivojlanib bormoqda. Bu albatta iqtisodiy jihatdan o'sishga yordam beradi, ammo, biz yashab turgan atrof-muhitimizga zarar yetkazishi mumkin.

Ba'zi zavod va fabrikalar direktorlari hamda ishchi xodimlari tabiatga befarqlik qilib chiqindilarni to'g'ri kelgan joylarga tashlab ketishadi. Bu birinchi navbatda odamlarning sog'ligiga zarar yetkazadi. Chunki agar chiqindilar suvga tashlansa, suvda yashovchi baliqlar zaharlanishi, tabiat qo'yniga tashlanganda esa cho'ponlarning boqib yurgan chorva mollari shu chiqindilarni yeyishi oqibatida kasallanishi mumkin. Biz esa o'z navbatida shu hayvonlarning go'shtlarini iste'mol qilgan holda o'z umrimizning poyoniga yetgan hisoblanamiz. Bu nafaqat zavod va fabrikalarga, balki o'zimiz yashab turgan xonadonlarning atrofida qurilgan chiqindi tashlash joylari bilan ham bog'liq. Agar har bir xonadon, ish joylari hamda korxonalar oldilariga chiqindilarning har bir turi uchun alohida yashiklar qurilsa, bu ekologiyani saqlash borasida qilingan ildam qadamlardan biri bo'lar edi. Tasavvur qiling-a, plastik idishlar uchun alohida, oziq-ovqat chiqindilari uchun alohida, qog'oz chiqindilari va boshqa narsalar uchun alohida yashiklar bo'lganda edi chiqindilarni qayta ishlash uchun ham, chiqindi tashlash joylarida ovqatlanadigan hayvonlar uchun ham foydali bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 18-maydagi PQ-3730-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek hududlarning ekologik va sanitariya holatini yaxshilash, sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish va belgilangan tartibda zarur darajada saqlashni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.



Inson hayotidagi yana bir muhim omillardan biri bu suvdur. Suvsiz odam juda qisqa vaqt yashashi mumkin. Bizning tanamiz mushaklar, suyaklar, organlar va suyuqliklardan iborat bo'lib, organizmning funkcionalligi va uzoq umr ko'rishi bir qancha omillarga, xususan, suv va oziq-ovqat iste'moliga bog'liq. Har bir organ to'g'ri ishlashi uchun suv kerak. Umuman olganda, inson tanasi taxminan 70 foiz suvdan iborat; bolalarda suvning ulushi bundan ham ko'proq - 85 foiz. Shuning uchun ham har bir inson suvdan foydalanayotgan vaqtda bu resurs bir kun kelib tugab qolishini inobatga olgan holda undan oqilona foydalanib, kelajak avlodga yetkazib berishi kerak.

Shaharda yashovchi har bitta xonadonning hojatxonasiga ichimlik suvi o'tqazilgan. Endi o'ylab ko'raylik, bitta odam bir kunga o'rtacha 20 litr suvni hojatxonaga ketqazishi mumkin. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 1991 yil boshida O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi tarkibida shahar joylarda yashovchi aholining ulushi 40,3 foizni tashkil etgan. 2022 yil boshiga kelib, ushbu ko'rsatkich 50,9 foizni tashkil etgan hamda 1991 yilga nisbatan 10,6 foizga ko'paygan. Bu degani 34 mln aholining yarimi ya'ni 17 mln fuqaro shaharda istiqomat qiladi. Bu insonlarning bir kunda hojatxonaga ishlatadigan suvlarini hisoblaydigan bo'lsak, ko'rsatkichlar kattalashadi. Albatta, bu bir kunlik ko'rsatkichlar. Agar bir oy yoki bir yillik suv sarfini hisoblasak, qancha suvni isrof qilayotganimizni tushunamiz. Hojatxona uchun alohida quvur o'tqazib, u uchun qayta ishlangan ichishga yaroqsiz suvlarni ishlatadigan bo'lsak, davlatimiz rivojlanishi uchun hissa qo'shayotgan fermer va dehqonlarimiz ham suvni tomchilatib sug'orishdan foydalanishsa, biz ichimlik suvidan yana bir yilga bo'lsada oqilona foydalangan hisoblanamiz.

Va barcha ma'lumotlarga tayangan holda shuni ayta olamanki, agar har bir inson tabiat in'omlaridan oqilona foydalansa, bu resurslardan ancha vaqtgacha kelajak avlod ham foydalana oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://bodyandface.ru/uz/excretory/skolko-prozhivet-bez-vody-i-edy-skolko-chelovek-mozhet-prozhit.html>

2. <https://darakchi.uz/index.php/oz/158702>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 18-maydagi PQ-3730-son qarori.



9. Abdusamatov, H., & QURBANOVA, M. (2022). Some social and psychological advice for families who have been destroyed. In Conference Zone (pp. 22-24).

10. Mamurjonovna, N. D. (2020, June). The concept of psychological service and its controversial issues in family. In Archive of Conferences (Vol. 2, No. 2, pp. 34-36).

11. Nuraliyeva, D. M. (2020). Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities. In International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page115-116. USA Conference Proceedings (Vol. 6).

12. Nuraliyeva, D. M. (2020). THE PROBLEMS OF DEVELOPING SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 711-713.

13. Nuralieva, D. M. (2020). THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 405-410).

14. Mamurjonovna, N. D., & Nurislom Ulug'bek o'gli, K. (2022). A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE. In Conference Zone (pp. 9-11).

15. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. Uzbek Scholar Journal, 6, 39-43.

16. Нуралиева, Д., & Абдусаматов, Х. (2021). Ajralish arafasidagi oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Общество и инновации, 2(10/S), 493-498

17. Mamurjonovna, N. D., & Abdugarimova, M. R. (2021, July). ON THE PSYCHOLOGICAL CRITERIA AND ORIGINAL FACTORS OF DISPUTES BETWEEN YOUNG PEOPLE. In Archive of Conferences (pp. 50-55).

Nuraliyeva, D. M. (2021). PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO FAMILIES ON THE VERGE OF DIVORCE. Экономика и социум, (10 (89)), 186-189.

18. Mamurjonovna, N. D. (2022). NIKOH OLDI OMILLARI VA OILA QURISH MOTIVLARINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI: Nuralieva Dildora Mamurjonovna Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD). Asqarova Odinaxan Mamatxonovna Psixologiya magistratura yo'nalishi 2-kurs talabasi.



Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 312-316.

19. Нуралиева, Д. М. (2022). OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO ‘RSATISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Нуралиева Дилдора Мамуржонова ФарДУ психология фанлари бўйича фалсафа доктори,(PhD). Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (11), 370-377.

20. Mampurjonovna, N. D. (2022). O’SPIRINLARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANISHIDA OILA MUXITINI TUTGAN O’RNI: Nuraliyeva Dildora Mampurjonovna FarDU psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori,(PhD) Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna Psixologiya (faoliyat turlari bo’yicha) 2-kurs magistranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 293-298.

21. Axrorov, P. Q., & Nuraliyeva, D. M. (2022). AMERIKA PSIXOLOGIYA MAKTABI NAMOYONDALARINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARINING OZIGA XOS JIHATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 59-61.

